

## INTERNET TILI VA USLUBI

**Zarina Komilova Zafar qizi**

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida o‘qituvchisi

e-mail: [komilovazarina98@gmail.com](mailto:komilovazarina98@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Uyali telefon tarmoqlarining rivojlanishi ham istalgan joydan turib, istalgan masofadagi nuqtaga individual aloqaga chiqishni oddiy holatga aylantirdi. Lekin inson tabiati ana shunday favqulodda imkoniyatdan ham qanoatlanmasligi tabiiy edi. Zero, cheklanmagan miqdordagi axborotni mumkin qadar ko‘proq odamlar diqqatiga havola qilish istagi Internet jurnalistikasining yaratilishiga, shakllanishiga olib keldi”. Internet jurnalistikasi haqida so‘z ochishdan avval, biroz global tarmoqning o‘ziga xos tili va uslubi haqida so‘z yuritamiz. Internet tizimi bizga ko‘p imkoniyatlar yaratib berdi. Uning ijobiy jihatlari juda ko‘p manbalarda ta’kidlanadi. Bu borada qator tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Bizga bunga ham ko‘p to‘xtalmaymiz. Mavzuimiz doirasida uning ayni kundagi til va uslub jihatlari nigoz tashlaymiz.

**Kalit so‘zlar:** internet tili, uslub, axborot tarqatish, ijtimoiy tarmoqlar, yozma va og‘zaki nutq va h.k.

Dunyoda Internet tarmoqlari ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning ajralmas va zaruriy vositasi sifatida borgan sari hayotning barcha yo‘nalishlarida keng va mustahkam o‘rin egallamoqda. Internet – ilmiy bilimlarning eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi.

Internet XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biridir. Ushbu kashfiyot tufayli butun jahon bo‘ylab tarqalgan va turli sohalar, yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan yuz millionlab kompyuterlarning yagona informatsion muhitga biriktirish imkoniyati tug‘ildi.

#### **Internetning quyidagi imkoniyatlari mavjud:**

- ma’lumotlarni topish;
- elektron pochta xizmati;
- fayllarni uzatish;
- muloqot qilish (chat, forum, videokonferentsiya): gmail, mailagent, skype;
- ma’lumotlarni tarqatish (vab sahifalar, vab bloglar, jamoa tarmoqlari, axborotnomalar, yangiliklar);
- elektron kutubxonalar;

- masofadan o‘qitish;
- telemeditsina;
- elektron tijorat;
- elektron ofis.

Hozirgi zamonda Internet axborot olish va axborot tarqatish vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Global tarmoqning jurnalist uchun ahamiyati juda ham kattadir. Birinchi galda, u, turli-tuman manbasi aniq va aniq bo‘lmagan axborot manbaidir.

Internet tilning o‘ziga xos alohida bir funksional turi bo‘lgan elektron kommunikatsiya vositalariga xizmat ko‘rsatuvchi til turidir. Internet tili: «...boshqa kommunikatsiya platformalari orqali yetkaziladigan matnli xabarlar tili: mobil telefonlarning xabarlar xizmati... teleks orqali yuborilgan xabarlar tili va maxsus qo‘llaniladigan bir qator boshqa texnik tizimlar asosidagi xabarlar tili» hisoblanadi.

Internet o‘z foydalanuvchilarining asosiy e’tiborini o‘zi foydalanadigan lingvistik vositalarga qaratishga harakat qiladi. Bundan tashqari, foydalanuvchilarning o‘zlari, tashrif buyuruvchilar yoki "virtual shaxslar" nafaqat butun Internet makonini yaratadilar, balki buni sezmasdan ham ushbu ijtimoiy qatlam muloqot qiladigan Internet tilini ixtiro qiladilar.

Internet tilini hozirgi paytda tilning funksional turi deb hisoblash mumkin.

Birinchi, ushbu til osti tilining qo‘llanilish sohasi kommunikatsiyaning boshqa sohalaridan aniq chegaralangan, chunki u texnik elektron vositalar yordamida amalga oshiriladi va doimo ular vositasida ifodalanadi. Ikkinchi, ushbu til osti tili o‘ziga xos kommunikativ maqsadlarni qondirishga xizmat qiladi (amaldagi maqsad – muloqot uchun muloqot va hokazo). Uchinchi, ushbu til osti tili multimediyaviy janr va shakllarning yangi tizimining yuzaga kelishiga turtki berdi va, natijada, konvetsional janrlar nazariyasidagi yangi yo‘nalish – virtual janrshunoslikning rivojlanishiga xizmat qildi. To‘rtinchi, tilning ushbu funksional turiga xos vositalar noyob (yoki deyarli noyob) leksik va grammatik tavsiflarning oson ajratib ko‘rsatilishi, shaklga solinishi mumkin va yagona pragmatik majmuani tashkil qiladigan muayyan jamlanmasi bilan tavsiflanadi. [ ]

Axborot davri hisoblangan bugungi kunda Internetdagi muloqot eng ommabop muloqot turiga aylanmoqda. U o‘zida turli-tuman til amaliyotlari, kommunikatsiya uslublari va shakllarini mujassam etadi. Asta-sekin bu muloqot davrimizning belgisiga aylanmoqda. Internetda janrlarni ajratib ko‘rsatishda muloqotning boshqa sohalaridagi janrlar tasnifiga tayaniladi.

Internet nutqi o‘z xususiyatlariga ko‘ra og‘zaki nutqqa o‘xshashdir. Ya’ni:

- O‘z-o‘zidan, tayyor emaslik;
- Bir iborani qisqartirish va soddalashtirish istagi;
- Nutq aktining spontanligi;

•Turli hollarda iqtisodga yoki nutq vositalarining ortiqchaligiga olib keladigan chiziqli belgi.

Virtual dunyoda foydalanuvchilar o‘z-o‘zidan og‘zaki suhbat qoidalariga ko‘ra real vaqt rejimida yaratilgan matnli xabarlarini yuborish orqali bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirgan holda, Internet makonida matn shaxsga ekvivalent bo‘ladi, shuning uchun matnning ma‘nosi sezilarli darajada oshadi va uning muallifi bo‘lgan shaxs bilan to‘liq bog‘lanadi.

Mamlakatimizda Internet foydalanuvchilarining aksariyati chatlarda so‘zlashish uchun mobil telefonlaridan foydalanadilar. Bu kabi vositalarda esa, asosan, lotin yozuvi qo‘llaniladi. Shu sababdan ham chat so‘zlashuvchilari o‘zbek va rus tillarida quyidagi qisqartmalardan foydalanadilar:

- A.a. – Assalomu alaykum;
- V.a. – Vaalaykum assalom;
- Bn – bilan;
- Ln – lekin;
- Mm – mumkin;
- Chndm – tushundim;
- Tel.q. – qo‘ng‘iroq qil;
- Kn – keyin;
- Kizi – yaxshi qiz;
- Ok –yaxshi yoki tushunarli.

Shunday qilib, zamonaviy Internet makonida lingvistik o‘zaro ta‘sirning mutlaqo yangi shakli rivojlanmoqda, bu aslida real dunyoda - yozma nutq tilida mavjud bo‘lishi qiyin. Bundan tashqari, yuqorida aytib o‘tganimizdek, ekspressiv-emotsional rang berish funktsiyasi turli xil lingvistik ekspressivlik usullari, masalan, kulgichlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan,

- xursandchilik – :)
- xafagarchilik – :(
- ayyorona murojaat – ;)
- ko‘z yosh to‘kish – :’(
- baxtdan o‘zini yo‘qotish – O:)

qayg‘uga botish – :/ shular jumlasidandir. Mazkur smayliklarning ellikka yaqin turi bo‘lib, Internet foydalanuvchilari o‘z kayfiyatlariga muvofiq kerakli smaylikdan foydalanadilar.

Bugungi axborot asrining uchta asosiy jihatini shartli ravishda ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular: axborotning haddan ziyodligi, texnologiyalar va ijtimoiy jihat.

Axborot miqdorining oshib borishi axborot birliklarining (grafik axborot uchun qo‘llaniladigan oddiy va murakkab belgilarning) o‘shishida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Axboriy asrning texnologik aspektini elektron, kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalarning kun sayin taraqqiy etib borishi, buning natijasi o'laroq, axborotning juda ham katta miqdorini muavffaqiyatli qayta ishlash, saqlash va uzatish imkonini berishida ko'ramiz.

Axborot asrining ijtimoiy aspekti barchamizga nisbatan axborot bosimining kuchayishida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda har bir inson turli yo'llar orqali yetib kelgan katta miqdordagi axborotlarni qabul qilishga majbur. Mazkur axborotlarning qanchalik haqiqatga to'g'ri kelishini aniqlash va qaror qabul qilishi uchun esa ko'plab xilma-xil yangiliklarni saralash zarurdir.

Til har doim yangi ijtimoiy va texnologik tamoyillari ta'siriga uchrab, hayot tarzining o'zgarib borayotganini aks ettiradi. Bu, ayniqsa, badiiy va publitsistik uslublarda, lug'at tarkibining o'zgarib borishida ko'rinadi.

Mediamatn xususiyatlarining namoyon bo'lishi va tarqatilishining muhim tomoni uning texnik, vizual vositalarning o'zaro qorishuvi darajasida amalga oshishidan iborat.

Bugungi kunda global tarmoqning tilga ta'siri oqibatida ikki xarakterli tamoyillar yuzaga kelmoqda.

Birinchidan, adabiy til me'yorlari bilan solishtirilganda ba'zi til vositalari soddalashib, ba'zilar esa murakkablashib bormoqda. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, Internetda pragmatik murakkablik ortgani holda, ba'zi ifodali vositalarning soddalashuvi tendensiyasi yuz beradi. Biroq bu qarash biryoqlama bo'lib, ifodali vositalar soddalashuvi qatorida murakkablashuv jarayoni ham yuz berishini inkor etolmaymiz. Hozirgi vaqtda haqiqatan ham «soddalashuv» jarayoni yuqori darajani ko'rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, global tarmoqda yuz beradigan ba'zi muammoli holatlar, masalan, ma'lum mavzudagi bahs-munozaralarda ko'zga tashlanadi.

Ikkinchidan, yozma va og'zaki nutq normalariga qarama qarshi ta'siri. Bu kabi vositalar yordamida «ishtirok ta'siri», «kommunikativ yaqinlik» vositalari vujudga kelib, kommunikatsiyaga doimiy tayyorlikka o'xshaydi. Biroq, bu hamisha ham muloqot ishtirokchilarining asl maqsadlariga mos kelmaydi. Ya'ni, kommunikatsiya ishtirokchilarining bevosita ishtirok etmasligi, o'zaro muloqotga tayyorgarlik ko'rilmagani bois ziddiyatlar holati kuzatiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz joizki, jamiyat ehtiyojlari ta'sirida shakllangan internet muhiti vaqt o'tishi bilan o'ziga xos sintaktik, tinish belgilari va grafik xususiyatlariga ega bo'lgan o'ziga xos tizimga aylandi. U ochiq va mobil, chunki u doimo yangilanadi.

Yangi aloqa elementlari, "kesishlarsiz" o'zini namoyon qilish imkoniyati va muhim ma'lumotlarni olish tezligi barcha yoshdagi va kasbdagi foydalanuvchilarni o'ziga jalb qiladi. Bu kommunikatorlarning virtual haqiqat dunyosini tezda tark etish

va uni qo‘llash qobiliyatidir. Amalda, matn tuzilmalarini malakali qurish ko‘nikmalari tobora zaiflashmoqda, bu ayniqsa, yosh avlod vakillariga nisbatan kuzatish mumkin. Qulay muhit yaratish nutq savodxonligini shakllantirish uchun zarur, chunki faqat shu tarzda og‘zaki va yozma muloqot madaniyatining umumiy darajasini oshirish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. «Getty Images Launches AI Tool to Transform Search for Media Publishers.» Getty Images Press Room, 2018.
2. «PA & Urbs Media Receive €706,000 Grant from Google for Automated News.» PA, 17 Sept. 2018.
3. «Getty Images Launches AI Tool to Transform Search for Media Publishers.» MarketWatch, 2 Aug. 2018
4. Romi.center.ru ( <https://romi.center/ru/learning/article/pr-cto-eto-takoe-i-chem-otlichaetsya-ot-rekl/>)
5. PRbook.ru (<https://prbook.ru/chem-otlichaetsja-pr-ot-reklamy/>)
6. D.S. Artomonov. Istoriya reklami I PR. Uchebnoye posobiye. 2019-Saratov.
7. Guzal Malikova. (2023). Easy and Convenient Presentation of Information Modern Method. Eurasian Journal of Media and Communications, 19, 1–6. Retrieved from
8. Go‘zal, Malikova, and Sharofiddinova Mahtob. "IJTIMOIY TARMOQLAR TILI VA USLUBI." Innovations in Technology and Science Education 2.10 (2023): 152-9.
9. Zarina Komilova. “Jamiyat taraqqiyotida axborotlashganlik ahamiyati” Scientific Progress. 2023.
10. Socio-Political and Economic Efficiency of E-Government Zarina Komilova Zafar qizi International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, Volume
11. Милюкова, А. Г. Теория и практика связей с общественностью и рекламы (Внутрикорпоративный PR) : учебное пособие
12. Виктор Александрович Барезhev. PR и реклама в управлении персоналом. (Бакалавриат). Учебное пособие.
13. Клушина Г.И. Публицистический текст в прагматическом аспекте. Коллективная монография. Язык массовой и межличностной коммуникации. – М.: Медиа Мир, 2007
14. Абдусаидов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. Монография. – Самарқанд, 2004
15. Аспекты общей и частной лингвистической теории текста. – М., 1982.
16. Астафурова Т.Н. Прагмалингвистический аспект деловой коммуникации // Языковая личность: проблемы значения и смысла. – Волгоград: Перемена, 1994.
17. Атабекова А.А. Лингвистический дизайн WEB-страниц (сопоставительный анализ языкового оформления англо- и русскоязычных WEB-страниц). – М.: Изд-во РУДН, 2003.